



THE ROLE OF AXIOLOGICAL FACTORS IN THE PERCEPTION OF AN ARTISTIC IMAGE

Muxriddin Abdimuratovich Usmanov

Doctoral student at the National University of Uzbekistan (NUUz)

e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: axiology, value, aesthetic perception, philosophical analysis, morality, spirituality, aesthetic formalism, catharsis, universality, phenomenology, postmodernism, reading culture, philosophy of art, social consciousness, spiritual stability, inner perfection.

Received: 15.09.25

Accepted: 16.09.25

Published: 17.09.25

Abstract: This article is devoted to a deep philosophical analysis of the role of axiological factors in the perception of the artistic image. The study reveals the central significance of the concept of value in understanding and evaluating art, and it compares the views of Eastern and Western thinkers. In Eastern traditions, works of art were interpreted in close connection with moral and spiritual values, while in Western philosophy they were analyzed through the criteria of aesthetic formalism, universality, and personal experience. Twentieth-century phenomenology demonstrated that values are rooted in bodily and emotional experience, whereas postmodernism emphasized their multilayered and relative nature, advancing the necessity of recognizing diversity in the interpretation of art. Furthermore, the reading reforms being implemented in New Uzbekistan are analyzed as an important factor in shaping aesthetic perception and social consciousness.

BADIIY OBRAZNI IDROK ETISHDA AKSIOLOGIK OMILLARNING O'RNI

Muxriddin Abdimuratovich Usmanov

O'zMU doktoranti

e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: aksiologiya, qadriyat, estetik idrok, falsafiy tahlil, axloqiylik, ma'naviyat, estetik formalizm, katarzis, universallik, fenomenologiya,

Annotatsiya: Mazkur maqola badiiy obrazni idrok etishda aksiologik omillarning rolini chuqur falsafiy tahlil qilishga qaratilgan. Tahlil jarayonida qadriyat tushunchasining

postmodernizm, kitobxonlik madaniyati, san'at falsafasi, ijtimoiy ong, ma'naviy barqarorlik, ruhiy kamolot.

san'atni anglash va baholashdagi markaziy ahamiyati ochib beriladi hamda Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari qiyosiy tarzda o'rganiladi. Sharq an'analarida san'at asarlari axloqiy-ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin qilingan bo'lsa, G'arb falsafasida ular estetik formalizm, universallik va shaxsiy tajriba mezonlari orqali tahlil qilingan. XX asr fenomenologiyasi qadriyatlarning tanaviy va hissiy tajribaga asoslanganligini ko'rsatgan bo'lsa, postmodernizm ularning ko'p qatlamliligi va nisbiyligini ta'kidlab, san'atni talqin qilishda xilma-xillikni tan olish zarurligini ilgari suradi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan kitobxonlik islohotlari estetik idrok va ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

РОЛЬ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ВОСПРИЯТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

Мухриддин Абдимуратович Усманов

докторант НУУз (Национального университета Узбекистана)

e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: аксиология, ценность, эстетическое восприятие, философский анализ, мораль, духовность, эстетический формализм, катарсис, универсальность, феноменология, постмодернизм, культура чтения, философия искусства, социальное сознание, духовная устойчивость, духовное совершенство.

Аннотация: Данная статья посвящена глубокому философскому анализу роли аксиологических факторов в восприятии художественного образа. В исследовании раскрывается центральное значение понятия ценности в понимании и оценке искусства, а также проводится сравнительный анализ взглядов мыслителей Востока и Запада. В восточных традициях произведения искусства интерпретировались в тесной связи с морально-духовными ценностями, тогда как в западной философии они анализировались через призму эстетического формализма, универсальности и личного опыта. Феноменология XX века показала, что ценности основаны на телесном и чувственном опыте, в то время как постмодернизм подчеркнул их многослойность и относительность, выдвинув необходимость признания многообразия в интерпретации искусства. Кроме того, в условиях Нового Узбекистана

анализируются реформы в области чтения как важный фактор формирования эстетического восприятия и социального сознания.

Kirish. Badiiy obraz inson tafakkurining eng murakkab va ko'p qirrali mahsullaridan biri bo'lib, u insonning nafaqat sezgi organlari orqali qabul qiladigan tashqi shaklini, balki uning ichki dunyosi, ma'naviy tajribasi va axloqiy qarashlari bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shu sababdan falsafada badiiy obrazni idrok etish masalasi uzoq davrdan beri e'tiborda bo'lib keladi. Obrazni anglash jarayonida insonning qadriyatlar – aksiologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Qadriyatlar insonning dunyoni bilishi va baholashida asosiy mezon vazifasini bajaradi” [1, p. 42].

Sharq tafakkurida estetik qadriyatlar doimo axloqiy va ma'naviy tushunchalar bilan birga talqin qilingan. Xususan, Konfutsiy ta'limotida go'zallik jamiyatdagi tartib va insonning burchini ado etishi bilan bog'langan: “inson haqiqiy go'zallikka axloqiy barkamollik orqali erishadi” [2, p. 57]. Daoistik yondashuvda esa tabiiylik va uyg'unlik tamoyili san'atdagi estetik idrokni belgilovchi eng muhim mezonlardan biri sifatida ko'riladi [3, pp. 88-90]. Hind falsafasida esa Bharata tomonidan yaratilgan “rasa” nazariyasi markaziy o'ringa ega bo'lib, u “san'atning vazifasi tomoshabinda estetik his uyg'otish va uni ruhiy kamolot sari eltishdir” [4, p. 117] deb tushuntiriladi.

Islomiy tafakkurda esa estetik qadriyatlar Qur'on va hadis asosida rivojlangan. Hadisi Shariflarda: “Alloh go'zal va u go'zallikni sevadi” [5, p. 25] deyiladi. Forobiy san'atni inson qalbini poklovchi va komillikka yetaklovchi vosita sifatida baholab, “san'at insonni ezgulikka chorlaydi” deya ta'kidlaydi [27, p. 133]. Ibn Sino ham musiqaning ruhiy kuchi, estetik idrok orqali qalbning poklanishi haqida so'z yuritadi [7, pp. 201–202]. Bu fikrlar bugungi kunda tibbiyotning ko'plab sohalarida samara berayotganini guvohi bo'lib turibmiz. Demak, Sharq mutafakkirlarida badiiy obrazni idrok etish qadriyatlar bilan bevosita bog'langan.

G'arb falsafasi ham qadimdan san'at va estetik qadriyatlarni o'rganib kelgan. Aflotun go'zallikni “ilohiy g'oyalarning dunyodagi aks-sadosi” [8, p. 76] sifatida talqin qilgan bo'lsa, Aristotel san'atni tabiatni badiiy taqlid qilish, lekin shu taqlid orqali inson qalbida “katarzis” – ya'ni ruhiy tozalanish hosil qilish jarayoni sifatida tushuntirgan [4, pp. 144-145]. I.Kant go'zallikni “manfaatsiz zavq” sifatida izohlaydi [5, p. 52]. Uning fikricha, estetik hukmlar sub'ektiv bo'lsa-da, universallikka intiladi. Shopengauer esa san'atni “irodaning to'xtashi” deb talqin qilib, insonni hayotiy iztiroblardan ruhiy ozodlikka eltishini ta'kidlaydi [13, pp. 219–220].

XX asrda fenomenologiya oqimi estetik idrokni yangi bosqichga olib chiqdi. Merla-Ponti “idrok tananing dunyo bilan faol aloqasidan tug'iladi” deb yozadi [10 p. 87]. Bu yondashuv

badiiy obrazni nafaqat ong, balki tana va sezgilarning hamkor tajribasi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, G'arbda "san'at san'at uchun" g'oyasi ham shakllanib, qadriyatlarni jamiyatdan ajratishga urinildi [14, p. 33].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Sharq falsafasida badiiy obraz doimo axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlikda talqin qilingan bo'lsa, G'arbda estetik qadriyatlar universallik, formalizm va individual ifoda bilan bog'liq tarzda rivojlangan. Ammo har ikki maktab ham san'atning inson tafakkurini yuksaltirishdagi o'rnini tan oladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni badiiy ijodga jalb etish va ularning estetik dunyoqarashini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. "Kitob – ma'naviyat manbai" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar natijasida jamiyatda badiiy obrazni idrok etish imkoniyatlari kengaymoqda [19, pp. 5–6]. Bu orqali yoshlarda nafaqat estetik did, balki axloqiy va fuqarolik mas'uliyati ham shakllanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy obrazni idrok etishda aksiologik omillarning ahamiyatini tushunish uchun Sharq va G'arb falsafasidagi estetik qarashlar, qadriyatlar nazariyasi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni keng qamrovda ko'rib chiqish zarur. Chunki qadriyatlar san'atni baholash, obrazni anglash va uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini tushunishda mezon vazifasini bajaradi.

Sharq falsafasida qadriyatlarning estetik idrokidagi o'rni qadimdan keng o'rganilgan. Konfutsiy ta'limotida go'zallik doimo axloqiy barkamollik bilan bog'langan: "inson haqiqiy go'zallikka faqat axloqiy burchni ado etish orqali erishadi" [2, p. 57]. Uningcha, san'at jamiyatni axloqiy uyg'unlikka chorlovchi vositadir. Daoizmida Laozi o'z asarida go'zallikni tabiat bilan uyg'unlikda idrok etishni ta'kidlab, sun'iylikka qarshi chiqqan [15, pp. 88–90]. Hind falsafasida Bharata tomonidan ishlab chiqilgan "rasa" nazariyasi san'atning asosiy maqsadi tomoshabinda estetik tuyg'u uyg'otish, uni ruhiy yuksalishga eltish ekanini ta'kidlaydi: "rasa qalbni poklaydi va ongni yuksaltiradi" [16, p. 117].

Islom falsafasida estetik qadriyatlarning ilohiy manbaga bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Qur'on oyatlarida "go'zallik – Allohning jamoli" sifatida talqin qilinadi. Forobiy "Kitab al-Musiqa al-Kabir" asarida san'atni ruhiy tarbiyaning muhim vositasi sifatida baholaydi. Ibn Sino ham "Kitab al-Najot" asarida san'atning, xususan musiqaning ruhiy kuch berishi haqida so'z yuritib, "go'zallikni idrok etish inson ruhini poklaydi" deya ta'kidlaydi [18, pp. 201–202]. Al-G'azzoliy esa san'atni "ruhiy ma'naviyatga eltuvchi vosita" sifatida izohlaydi [28, p. 92]. Shuningdek, Sufiy adabiyotida badiiy obraz ramz sifatida talqin qilinadi. Jaloliddin Rumi "Masnaviy"da badiiy obraz orqali ilohiy haqiqatni anglash mumkinligini yozadi: "ramz va

timsollar insonni botiniy haqiqatga olib boradi” [3, p. 211]. Bu esa estetik qadriyatlarning ruhiy-mistik tajriba bilan uygʻunlashishini koʻrsatadi.

Gʻarb falsafasi qadimdan boshlab sanʼat va qadriyatlarni nazariy jihatdan chuqur tahlil qilgan. Aflotun fikricha sanʼat gʻoyalarni ifodalovchi vosita boʻlib, insonni yuksak maʼnaviy haqiqatga olib chiqadi. Aristotel esa sanʼatni tabiatga taqlid qilish orqali idrok qilinadigan jarayon sifatida talqin qiladi va uning vazifasi “katarzis”ni yaʼni ruhiy tozalanishni hosil qilishdan iboratligini qayd etadi [4, pp. 144–145].

XX asrda fenomenologiya oqimi sanʼatni yangi nuqtai nazardan talqin qildi. Gusserl idrokni “tajribani ong orqali tuzilmaga solish jarayoni” sifatida tushuntirgan [9, p. 101]. Gʻarbda shuningdek “sanʼat sanʼat uchun” oqimi shakllanib, qadriyatlarni jamiyatdan ajratib, sanʼatni sof estetik tajriba sifatida talqin qilishga urinish boʻlgan [14, p. 33]. Bu oqim Viktorian davri adabiyoti va O.Wilde kabi yozuvchilarda oʻz ifodasini topdi.

Sharq va Gʻarb falsafiy merosini qiyosiy tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotchilar ham aksiologik omillarni alohida taʼkidlaganlar. Masalan, N.Gartmann qadriyatlarni falsafaning mustaqil sohasi sifatida koʻrib, “qadriyatlar inson faoliyatini yoʻnaltiruvchi obʼektiv mezonlardir” deb yozadi [1, p. 67]. M.Scheler esa “qadriyatlarning ierarxik tizimini” ishlab chiqib, estetik qadriyatlarni axloqiy va diniy qadriyatlardan ajratib, ularning oʻziga xosligini taʼkidlagan.

Qiyosiy-falsafiy yondashuv Sharq va Gʻarb qarashlarini solishtirish, ularning umumiy va farqli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Fenomenologik yondashuv badiiy obrazni tanaviy tajriba sifatida tushunishga yordam beradi. Aksiologik tahlil qadriyatlarning estetik idrokidagi oʻrnini ochib beradi. Sotsio-madaniy yondashuv esa Yangi Oʻzbekiston sharoitida kitobxonlik va badiiy ijodiy jarayonlarning jamiyatga taʼsirini tushuntirishga xizmat qiladi. Nihoyat, manbashunoslik tamoyili Sharq va Gʻarb merosidan tortib, zamonaviy ilmiy maqolalar va internetda ochiq manbalargacha boʻlgan adabiyotlarni tahlil etishga asoslanadi.

Natijalar. Natijalar shuni koʻrsatadiki, qadriyatlar sanʼatni qabul qilishning barcha bosqichlarida markaziy rol oʻynaydi: ular sezgi va hislar darajasidan tortib, tushunish, baholash va ijtimoiy ongda shakllanish jarayonigacha uzviy ishtirok etadi. Qadriyatlar sanʼatning estetik, maʼnaviy va ijtimoiy vazifalarini aniqlab beradi. Avvalo, qadriyatlarning sanʼat idrokidagi oʻrni Sharq mutafakkirlari qarashlarida yaqqol koʻrinadi. Konfutsiy, Laozi, Bharata, Forobiy, Ibn Sino va Rumiy kabi allomalar estetik obrazni insonning maʼnaviy kamolotiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilgan. Konfutsiy goʻzallikni axloqiy tartib bilan bogʻlab, inson faqat burchni ado etish orqali haqiqiy goʻzallikka erishishi mumkinligini taʼkidlagan. Daoizmda goʻzallik tabiat bilan uygʻunlikda talqin qilinib, inson va borliqning birligi qadriyat sifatida ilgari surilgan.

Bharataning “rasa” nazariyasi san’atning asosiy vazifasini qalbda estetik zavq uyg’otish va shaxsni ruhiy yuksaltirish sifatida izohlaydi. Forobiy san’atni jamiyatni ezgulikka yetaklovchi kuch deb baholagan, Ibn Sino esa musiqaning ruhiy quvvat berishini alohida ta’kidlab, estetik idrok orqali inson qalbi poklanishini ko’rsatgan. Rumiyl badiiy obrazni ilohiy haqiqatga eltuvchi ramz sifatida talqin qilib, obrazni idrok etish jarayonida qadriyatlarning markaziy rolini namoyon qilgan.

Antik davr allomalari va G’arb mutafakkirlari ham qadriyatlarning san’atdagi o’rnini keng yoritganlar. Platon go’zallikni ilohiy g’oyalar olamining in’ikosiga bog’lab, uni metafizik tushuncha sifatida izohlagan. Aristotel esa san’atning inson qalbini ruhiy tozalanishga eltuvchi kuchini alohida ta’kidlagan. Shopengauer san’atni insonni hayotiy iltiroblardan ozod qiluvchi vosita deb talqin qilib, badiiy obrazni idrok etishda qadriyatlarning ruhiy ozodlik beruvchi rolini qayd etgan. XX asr fenomenologlaridan Gusserl va Merlu-Ponti idrokni ongiy va tanaviy tajriba sifatida talqin qilib, obrazni anglash jarayonida qadriyatlarning sezgi va ong uyg’unligidagi o’rnini ochib berganlar. Postmodern nazariyalarda esa qadriyatlarning nisbiyligi, ko’plik va turli madaniy kontekstlarga bog’liqligi ta’kidlangan.

Qiyosiy tahlillar ko’rsatdiki, Sharq an’analari badiiy obrazni doimo axloqiy va ma’naviy qadriyatlar bilan bog’liq holda talqin qilgan. Sharqda san’at tarbiyaviy va ruhiy kamolotga eltuvchi vosita sifatida qadrlangan. G’arbda esa qadriyatlar ko’proq formalizm, universallik, sub’ektiv did va innovatsiya mezonlari bilan izohlangan. Shu bilan birga, har ikki yondashuv san’atning inson tafakkurini yuksaltirishdagi rolini tan olgan. Rumiyl va Shopengauer qarashlari bir-biridan geografik va madaniy jihatdan uzoq bo’lsa-da, ikkalasi ham san’atning insonni hayotiy iltiroblardan yuksak haqiqat sari eltuvchi qudratini e’tirof etgan. Bu esa qadriyatlarning umumiy insoniy mohiyatga ega ekanini ko’rsatadi.

O’rganilgan tahlillarning muhim natijalaridan yana biri, qadriyatlar faqat individual idrokda emas, balki jamiyat ongida ham san’atni qabul qilish mezonlarini belgilaydi. Badiiy obraz jamiyatda mavjud qadriyatlarni mustahkamlashi yoki ularni yangilashi mumkin. Masalan, Navoiy asarlari o’z davrida adolat, ma’rifat va insoniylik qadriyatlarini targ’ib qilib, jamiyatning axloqiy barkamolligiga hissa qo’shgan. Dantening “Ilohiy komediya”si esa o’rta asr Yevropasida diniy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda katta ta’sir ko’rsatgan.

Shuningdek, Shekspir dramalarida obrazlar orqali insoniy hislar va axloqiy tanlovlar yoritilib, qadriyatlarning murakkab tabiatini ochib berilgan.

Bugungi davrda qadriyatlarning san’atdagi o’rni yangi sharoitda namoyon bo’lmoqda. Fenomenologiya va postmodernizm qadriyatlarning ko’p qatlamli, dinamik va nisbiy tabiatini ko’rsatib berdi. Bu yondashuvlarga ko’ra, badiiy obrazni idrok etish jarayoni yagona mezon

bilan cheklanmaydi, balki turli qadriyat tizimlari, madaniy tajribalar va tarixiy sharoitlar uyg'unligida amalga oshadi. Demak, qadriyatlarning san'atdagi roli faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham turlicha bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida yoshlarning estetik tafakkuri kengayib, badiiy obrazni idrok etish qobiliyati kuchaymoqda. Kitobxonlik orqali yoshlar nafaqat estetik didini, balki axloqiy qarashlarini ham rivojlantirmoqda. "Kitobxonlik yoshlarning estetik didini rivojlantirib, ularni ijodiy tafakkurga undaydi" degan xulosalar zamonaviy tadqiqotlarda qayd etilgan [19, p. 22]. Bu esa qadriyatlarning san'at orqali jamiyat ongiga singdirilishida davlat siyosatining o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki:

- qadriyatlar badiiy obrazni idrok etishning barcha bosqichlarida faol ishtirok etadi va san'atni anglash jarayoniga ma'no baxsh etadi;
- Sharq an'alarida qadriyatlar asosan axloqiy-ma'naviy, G'arb an'alarida esa estetik-formal va universal mezonlar asosida talqin qilingan;
- zamonaviy yondashuvlar qadriyatlarning ko'p qatlamli va nisbiyligini ta'kidlab, badiiy obrazni turli kontekstlarda qayta talqin qilish imkonini yaratmoqda;
- Yangi O'zbekiston sharoitida kitobxonlik va madaniy islohotlar qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni estetik tafakkurga jalb etish va jamiyatni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Muhokama. Badiiy obrazni idrok etishda aksiologik omillar masalasi bo'yicha tadqiqot natijalari bir qator muhim xulosalarni ko'rsatdi. Endi ularni falsafiy nuqtai nazardan kengroq muhokama qilish, turli qarashlar bilan taqqoslash va ularning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash lozim. Chunki falsafiy tahlilda faqat natijani qayd etish emas, balki uning ma'nosini chuqur anglash, boshqa konsepsiyalar bilan bog'lash ham muhimdir.

Sharq mutafakkirlari qadriyatlarni san'atning eng muhim o'lchovi sifatida ko'rganlari bilan ajralib turadi. Masalan, Konfutsiylikda inson haqiqiy go'zallikka faqat axloqiy barkamollik orqali erishadi, deya ishoniladi. Bu fikr estetik idrokni ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan bevosita bog'lashning kuchli jihatidir. Rumi ham obrazni ilohiy haqiqatga eltuvchi ramz sifatida talqin qilib: "she'riy obraz qalbni Haqqa eltuvchi ko'prikdir" degan [3, p. 215]. Sharq tafakkurining bu jihati san'atni faqat hissiy zavq emas, balki ma'naviy poklanish vositasi sifatida qadrlashga undaydi. Ammo bu yondashuvning ayrim cheklanishlari ham mavjud. Masalan, konfutsiylik va islomiy-falsafiy merosda san'at ko'pincha jamiyatning axloqiy tartibini mustahkamlashga qaratilgan. Bu esa ayrim hollarda san'atning erkin ijodiy tabiati va shaxsiy

ekspressiyasini cheklab qo'yishi mumkin. Ayni paytda, zamonaviy davrda san'at erkinligi qadriyat sifatida alohida e'tirof etilmoqda. Demak, Sharq yondashuvi chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning universallikka da'vosi ba'zan tor ijtimoiy me'yorlarga bog'lab qo'yilishi mumkin.

G'arb falsafasi qadriyatlarni ko'proq universallik va estetik formalizm bilan bog'lagan. Aristotelning "katarzis" nazariyasi san'atning ruhiy poklovchi kuchini ko'rsatadi: "tragediya rahm-shafqat va qo'rquv hissini uyg'otib, ularni tozalaydi" [4, p. 145]. Bu qarashlarning afzalligi shundaki, ular san'atni faqat diniy yoki axloqiy qadriyatlarga bog'lab qo'ymaydi, balki estetik tajribaning o'ziga xosligini saqlab qoladi. Shu bilan birga, formalizmga haddan ziyod urg'u berilishi san'atning ijtimoiy va ma'naviy vazifasini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Masalan, XIX asrdagi "san'at san'at uchun" oqimi qadriyatlarni san'atdan ajratib qo'ygan, natijada san'at jamiyat bilan aloqadan uzilgan holda talqin qilingan [14, p. 33].

Postmodernistlar qadriyatlarning ko'p qirraliligini ta'kidlab, yagona mezonlar mavjudligini inkor etdilar. Barthes "muallif o'limi" konsepsiyasida "matnning ma'nosi muallifning qadriyatlarida emas, balki o'quvchining qadriyatlarida shakllanadi" [11, p. 110], deya yozadi. Bu qarash qadriyatlarning nisbiyligini ko'rsatadi. Ammo postmodernizmning zaif tomoni shundaki, u qadriyatlarni haddan tashqari bo'shatib yuborib, umumiy mezonlardan butunlay voz kechadi. Natijada san'atni baholashda parokandalik yuzaga keladi.

Muhokama jarayonida qadriyatlarning jamiyatdagi ijtimoiy-falsafiy o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy asarlarida "insonni ma'rifat va adolat qadriyatlari bilan yuksaltirish mumkin" degan fikr ilgari surilgan [6, p. 84]. Dantening "Ilohiy komediya"si ham axloqiy qadriyatlarni obrazlar orqali singdirib, o'rta asr Yevropasida jamoaviy ongni shakllantirgan [7, p. 203]. Yangi O'zbekiston sharoitida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar qadriyatlarning san'at bilan bog'liqligini amalda tasdiqlamoqda. "Kitob – ma'naviyat manbai" dasturi asosida yoshlarning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [19, pp. 5–6]. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlarda "kitobxonlik yoshlarning estetik didini rivojlantirib, ularni ijodiy tafakkurga undaydi" deya qayd etilgan [20, p. 22]. Bu islohotlar yoshlar badiiy obrazlarni chuqurroq idrok etishiga xizmat qilmoqda, ularning ijtimoiy ongida empatiya, tolerantlik va fuqarolik qadriyatlari shakllanmoqda. Shu tariqa, Yangi O'zbekistonning madaniy siyosati qadriyatlarni san'at orqali jamiyat ongiga singdirishning zamonaviy modelini yaratmoqda.

Xulosa. Badiiy obrazni idrok etishda aksiologik omillarning o'rni falsafiy jihatdan o'rganilganda qadriyatlarning san'atni anglash jarayonida markaziy tamoyil hisoblanishi

namoyon bo'ldi. Zero, N.Gartmann iborasi bilan aytganda “qadriyatlar ongning voqelikni baholashdagi asosiy mezonlaridan biridir” [1, p. 67]. Shunday ekan, ularni estetik tajribadan ajratib bo'lmaydi.

Sharq mutafakkirlari qadriyatlarni san'atning ma'naviy-axloqiy vazifalari bilan bog'lab talqin qilgan. Ularning qarashlarida san'atning tarbiyaviy kuchi ustuvor bo'lib, u shaxsni ham, jamiyatni ham ezgulikka yetaklovchi qadriyat manbai sifatida qaralgan. G'arb falsafasida esa qadriyatlarning san'atdagi o'рни ko'proq universallik va formalizm bilan bog'langan. San'atni mustaqil estetik tajriba sifatida qadrlansada, biroq bu ba'zida uning ijtimoiy vazifasini cheklab qo'yilishiga olib keladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida qadriyatlarning san'at orqali jamiyat ongiga singdirilishi kitobxonlikni keng targ'ib qilish orqali namoyon bo'lmoqda. Kitobxonlik yoshlarning badiiy-axloqiy, estetik didini rivojlantirib, ularning ijodiy tafakkuri kengayishiga xizmat qiladi. Natijada yoshlarning ijtimoiy ongida empatiya, bag'rikenglik va fuqarolik qadriyatlari mustahkamlanadi. Bu omillar qadriyatlarning nazariy emas, balki amaliy ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Shuning uchun ham badiiy obrazni idrok etishda aksiologik omillarni o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Qadriyatlar shaxsning ruhiy kamolotini ta'minlaydi, jamiyatning ma'naviy barqarorligini mustahkamlaydi va madaniy taraqqiyotga yo'l ochadi. Yangi O'zbekiston islohotlari esa qadriyatlarning san'at orqali jamiyat tafakkurini boyitishdagi rolini yanada kuchaytirib, kelajakda estetik va ijtimoiy yuksalishning kafolatiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Hartmann N. Ethik. Berlin: de Gruyter, 1926. — 412 p.
2. Confucius. The Great Learning & Doctrine of the Mean. New York: Dover Publications, 2005. — 212 p.
3. Rumi, Jalaluddin. Masnavi-i Ma'navi. Tehran: Nashr-e Markaz, 2007. — 624 p.
4. Aristotle. Poetics. Cambridge: Harvard University Press, 1995. — 256 p.
5. Kant I. Critique of Judgment. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 472 p.
6. Navoi A. Xamsa. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. — 5 jild.
7. Dante A. Divina Commedia. Milano: Mondadori, 1995. — 624 p.
8. Shakespeare W. Hamlet. Oxford: Oxford University Press, 2008. — 310 p.
9. Husserl E. Ideas Pertaining to a Pure Phenomenology. The Hague: Martinus Nijhoff, 1982. — 389 p.

10. Merleau-Ponty M. *Phenomenology of Perception*. London: Routledge, 2012. — 544 p.
11. Barthes R. *Image, Music, Text*. London: Fontana Press, 1977. — 220 p.
12. Lyotard J.-F. *The Postmodern Condition: A Report on Knowledge*. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. — 137 p.
13. Schopenhauer A. *The World as Will and Representation*. Vol. 1. New York: Dover Publications, 1966. — 534 p.
14. Pater W. *The Renaissance*. Oxford: Oxford University Press, 1986. — 198 p.
15. Laozi. *Dao De Jing*. Beijing: Foreign Languages Press, 2004. — 220 p.
16. Bharata. *Natyashastra*. Delhi: Munshiram Manoharlal Publishers, 2006. — 350 p.
17. Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Ma'naviyat, 1993. — 280 b.
18. Ibn Sino. *Kitob ush-shifo (Metafizika qismi)*. Tehron: Nashr-e Markaz, 2005. — 500 p.
19. Karimov A. *Yoshlar va kitobxonlik madaniyati*. Toshkent: Ma'naviyat, 2021. — 186 b.
20. *The Role of Reforms in the Development of the Reading Culture of Youth in Uzbekistan*. Web of Scientist Journal, 2024. — pp. 20–30.
21. Eco U. *The Open Work*. Cambridge: Harvard University Press, 1989. — 302 p.
22. Gadamer H.-G. *Truth and Method*. London: Bloomsbury, 2013. — 640 p.
23. Ricoeur P. *Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning*. Fort Worth: Texas Christian University Press, 1976. — 87 p.
24. Baudrillard J. *Simulacra and Simulation*. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. — 164 p.
25. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 180 b.
26. Qur'oni Karim. *Toshkent nashri*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2017. — 604 b.
27. Farabi A.N. *Risala fi-l-musiqa*. Cairo: Dar al-Kutub, 1967. — 210 p.
28. Ibrokhimov, F. A. (2025). POSSIBILITIES OF USING EFFECTIVE MODERN METHODS IN TEACHING PHILOSOPHICAL SCIENCES. Экономика и социум, (6-2 (133)), 2045-2049.
29. Bekinov, O. T. (2025). THE IMPACT OF CYBERSPACE AND HUMAN-TECHNOLOGY INTEGRATION ON SOCIAL LIFE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS. Экономика и социум, (6-2 (133)), 2036-2040.

30. Йулдошев, А. (2023). Значение кластерного подхода в образовании. *Miasto Przyszlosci*, 31.